
Linguocultural foundations of neologisms in English and Uzbek internet lexicon

Jalilov Bahodir Hamzayevich
bakhodirjalilov749@gmail.com

Doctoral Student,
Bukhara State University
Lecturer,
Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation *This article provides a comprehensive linguocultural analysis of neologisms emerging in English and Uzbek internet lexicon. In particular, it examines the mechanisms of formation of new lexical units under the influence of the global digital communication environment, their semantic transformation, and their functional usage. Internet discourse is characterized by speed, interactivity, and multimodality, and the neologisms formed within it differ from traditional linguistic units by being dynamic and context-dependent.*

Keywords *Neologism, internet lexicon, internet discourse, semantic features, social media, artificial intelligence, digital communication, globalization, cultural factors, language development*

Ingliz va o'zbek internet leksikasida ishlatiladigan neologizmlarning lingvomadaniy asoslari tahlili

Jalilov Bahodir Hamzayevich
bakhodirjalilov749@gmail.com

Doktorant,
Buxoro davlat universiteti
O'qituvchi,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek internet leksikasida shakllanayotgan neologizmlar lingvomadaniy nuqtai nazardan kompleks tarzda tahlil qilinadi. Xususan, global raqamli kommunikatsiya muhiti ta'sirida yuzaga kelayotgan yangi birliklarning paydo bo'lish mexanizmlari, ularning semantik transformatsiyasi hamda funksional qo'llanish doirasi chuqur o'rganiladi. Internet diskursi o'zining tezkorligi, interaktivligi va multimodalligi bilan ajralib turar ekan, unda shakllanayotgan neologizmlar ham an'anaviy til birliklaridan farqli ravishda dinamik va kontekstga bog'liq xususiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar *Neologizm, internet leksikasi, internet diskursi, semantik xususiyatlar, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt, raqamli kommunikatsiya, globalizatsiya, madaniy omillar, til taraqqiyoti*

Лингвокультурные основы неологизмов в интернет-лексике английского и узбекского языков

Жалилов Бахадир Хамзаевич
bakhodirjalilov749@gmail.com

Докторант,
Бухарский государственный университет
Преподаватель,
Бухарский государственный педагогический институт

Аннотация *В данной статье проводится комплексный лингвокультурный анализ неологизмов, формирующихся в интернет-лексике английского и узбекского языков. В частности, рассматриваются механизмы возникновения новых лексических единиц под влиянием глобальной цифровой коммуникационной среды, их семантические трансформации и функциональные особенности употребления. Интернет-дискурс характеризуется высокой скоростью, интерактивностью и мультимодальностью, а формирующиеся в нём неологизмы отличаются динамичностью и контекстуальной зависимостью.*

Ключевые слова *Неологизм, интернет-лексика, интернет-дискурс, семантические особенности, социальные сети, искусственный интеллект, цифровая коммуникация, глобализация, культурные факторы, развитие языка*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insoniyat hayotining barcha sohalarida, xususan, til tizimida ham sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Internet muhitining kengayishi, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi va global axborot almashinuvining jadallashuvi natijasida yangi leksik birliklar – neologizmlar faol tarzda shakllanmoqda va nutq jarayoniga kirib kelmoqda. Ayniqsa, ingliz tili global kommunikatsiya vositasi sifatida internet leksikasining asosiy manbalaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda, bu esa boshqa tillar, jumladan, o'zbek tiliga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Neologizmlar nafaqat yangi tushunchalarni ifodalash vositasi, balki tilning lingvomadaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim birlik sifatida ham qaraladi. Har bir yangi so'zning paydo bo'lishida muayyan ijtimoiy, madaniy va kommunikativ ehtiyojlar mujassam bo'lib, ular jamiyatning dunyoqarashi, qadriyatlarini va turmush tarzini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, ingliz va o'zbek internet leksikasida qo'llanilayotgan neologizmlarni lingvomadaniy jihatdan o'rganish til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, globallashuv sharoitida turli tillar

o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchayib borar ekan, milliy til tizimida yuz berayotgan leksik o'zgarishlarni ilmiy asosda tahlil qilish zarurati ortib bormoqda. Internet leksikasidagi neologizmlar tilning dinamik rivojlanishini, yangi kommunikativ ehtiyojlarga moslashuvini hamda madaniy integratsiya jarayonlarini aks ettiradi.

Zamonaviy globallashuv va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti sharoitida til tizimi ham jadal o'zgarishlarga uchramoqda. Ayniqsa, internet muhitining kengayishi natijasida yangi kommunikativ makon shakllanib, unda o'ziga xos leksik birliklar neologizmlar faol ravishda paydo bo'lmoqda. Ushbu jarayon nafaqat tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari, balki jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va texnologik omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu bois internet leksikasini lingvomadaniy nuqtai nazardan o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Ingliz tili bugungi kunda global kommunikatsiya vositasi sifatida internet makonida yetakchi mavqega ega bo'lib, ko'plab yangi so'z va iboralar aynan shu til asosida shakllanmoqda. Mazkur neologizmlar boshqa tillarga, jumladan, o'zbek tiliga ham faol ravishda kirib kelib, ularning leksik tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada o'zbek internet diskursida ham yangi leksik

birliklar paydo bo'lib, ular milliy madaniyat, mentalitet va kommunikativ ehtiyojlar asosida o'ziga xos shakl va mazmun kasb etmoqda.

Avvalo, David Crystal (2003) internet tilshunosligi sohasida yetakchi olimlardan biri hisoblanadi. Uning *"Language and the Internet"* asarida internet kommunikatsiyasi tilning yangi shakllarini yuzaga keltiruvchi mustaqil diskurs sifatida talqin qilinadi. Crystal (2003) internet tilini yozma va og'zaki nutq o'rtasidagi "gibrid" shakl deb baholab, neologizmlar aynan shu muhitda tezkor tarzda shakllanishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, internetdagi yangi so'zlar qisqalik, ekspressivlik va kommunikativ samaradorlik tamoyillariga asoslanadi. Bu qarashlar mazkur tadqiqotda kuzatilgan *GRWM, POV, doomscrolling* kabi birliklarning shakllanish xususiyatlarini izohlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim olim sifatida Manfred Görlach(2003)ni keltirish mumkin. U neologizmlar nazariyasi va ularning tasnifi bilan shug'ullangan bo'lib, *"A Dictionary of European Anglicisms"* asarida ingliz tilidan boshqa tillarga kirib borayotgan yangi leksik birliklarni tahlil qiladi. Görlach ingliz tilining global ta'siri natijasida yuzaga kelayotgan lingvistik qarz olish jarayonlarini tizimli ravishda o'rganadi. Uning fikricha, neologizmlar boshqa tillarga o'tishda fonetik va morfologik moslashuv bosqichlaridan o'tadi. Bu nazariya o'zbek internet diskursida kuzatilayotgan *fleks qilmoq, cancel qilmoq* kabi gibrid birliklarning shakllanish mexanizmini tushuntirishda dolzarbdir (Görlach, 2003).

Zygmunt Baumann(2000) ijtimoiy-madaniy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. Garchi u bevosita neologizmlar bilan shug'ullanmagan bo'lsa-da, uning *"Liquid Modernity"* konsepsiyasi zamonaviy jamiyatning o'zgaruvchan va beqaror tabiatini tushuntiradi. Bauman (2000) fikricha, zamonaviy jamiyatda identitet va kommunikatsiya shakllari tez o'zgaradi, bu esa tilga ham bevosita ta'sir qiladi. Internet neologizmlarining tez paydo bo'lishi va tez

yo'qolishi aynan shu "suyuq zamonaviylik"ning tilshunoslikdagi aksidir.

Yuqoridagi olimlarning qarashlarini umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, neologizmlar nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida talqin qilinishi zarur. Ular til tizimining ichki rivoji bilan bir qatorda global kommunikatsiya, texnologik taraqqiyot va jamiyatdagi qadriyatlar o'zgarishi bilan ham bevosita bog'liqdir. Tadqiqotlarimiz natijasida shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy o'zbek internet diskursi hozirda muhim transformatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. Ingliz tilining kuchli ta'siri natijasida gibrid neologizmlar ko'payib borayotgan bo'lsa-da, bu jarayonni faqat salbiy hodisa sifatida baholash to'g'ri emas. Aksincha, bu tilning moslashuvchanligi va ochiqligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, milliy til resurslari asosida yangi so'zlar yaratish jarayonini qo'llab-quvvatlash muhimdir. Chunki til nafaqat aloqa vositasi, balki milliy madaniyat va tafakkur ifodasi hamdir. Shu bois, kelajakdagi tadqiqotlarda neologizmlar muvozanatini ya'ni global ta'sir va milliylik uyg'unligini saqlash masalasiga alohida e'tibor qaratish zarur deb hisoblanadi.

Zamonaviy internet diskursi til taraqqiyotining eng faol va dinamik maydonlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, 2024-2026-yillar oralig'ida yuzaga kelgan neologizmlar til tizimidagi yangilanish jarayonlarining tezlashganini ko'rsatadi. Ushbu davrda shakllangan yangi leksik birliklar asosan raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt, onlayn madaniyat va global kommunikatsiya bilan bevosita bog'liqdir.

Birinchidan, ingliz internet leksikasida paydo bo'lgan neologizmlar ko'pincha texnologik innovatsiyalar bilan uzviy aloqador. Masalan, *AI-generated, promptcraft, deepfake voice, digital clone, algorithmic bias* kabi birliklar sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar rivoji bilan bog'liq holda keng qo'llanila boshladi. Ushbu neologizmlar nafaqat yangi tushunchalarni ifodalaydi, balki

inson va texnologiya o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning murakkablashib borayotganini ham aks ettiradi. Xususan, *promptcraft* termini foydalanuvchilarning sun'iy intellekt bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini ifodalasa, *digital clone* tushunchasi virtual identitet masalasini lingvomadaniy kontekstda yoritadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn madaniyat ta'sirida yuzaga kelgan neologizmlar alohida guruhni tashkil etadi. 2024-2026-yillarda keng tarqalgan *main character energy*, *de-influencing*, *quiet quitting 2.0*, *soft life*, *delulu* kabi birliklar zamonaviy yoshlar madaniyati, psixologik holatlar va ijtimoiy tendensiyalarni ifodalaydi. Masalan, *de-influencing* atamasi iste'mol madaniyatiga qarshi harakatni anglatasa, *soft life* konsepti stresssiz va minimalistik hayot tarzini targ'ib qiladi. Bu kabi neologizmlar til orqali jamiyatdagi qadriyatlar transformatsiyasini ko'rsatadi.

Uchinchi jihat sifatida, ingliz tilidan o'zbek internet diskursiga kirib kelayotgan neologizmlar va ularning moslashuv jarayonini ko'rish mumkin. O'zbek internet muhitida *krinj* (cringe), *fleks qilmoq* (flex), *trendda*, *viral bo'ldi*, *cancel qilmoq*, *ship qilmoq* kabi birliklar faol qo'llanilmoqda. Ushbu so'zlar ko'pincha fonetik va morfologik jihatdan moslashtirilib, o'zbek tilining grammatik tizimiga integratsiyalashmoqda. Masalan, *fleks qilmoq* birikmasida inglizcha asos (flex) o'zbekcha fe'l yasovchi model bilan qo'llanilib, yangi gibrid birlik hosil qilinmoqda.

Shuningdek, o'zbek internet leksikasida ichki imkoniyatlar asosida yaratilgan neologizmlar ham mavjud. Masalan, *obunachi* (subscriber), *ko'rimbop* (viral kontent), *tezkor xabar* (breaking news kontekstida), *tarmoqdosh* kabi birliklar milliy til resurslari asosida shakllangan bo'lib, ular lingvomadaniy identitetni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu holat o'zbek tilining nafaqat qabul qiluvchi, balki yaratuvchi til sifatida ham faol ekanini ko'rsatadi (Jalilov, 2024).

Neologizmlarning semantik xususiyatlari ham alohida e'tiborga loyiq. 2024-2026-yillar neologizmlarida metaforizatsiya (*brain rot*, *doomscrolling*), ironik ma'no yuklanishi (*delulu*), qisqartma shakllar (*GRWM – get ready with me*, *POV – point of view*) va ekspressivlik yuqori darajada kuzatiladi. Masalan, *doomscrolling* termini foydalanuvchining salbiy yangiliklarni uzluksiz kuzatish odatini ifodalab, zamonaviy axborot iste'moli muammolarini aks ettiradi.

Lingvomadaniy nuqtai nazardan qaralganda, neologizmlar muayyan jamiyatning qadriyatlari, dunyoqarashi va kommunikativ strategiyalarini o'zida mujassam etadi. Ingliz internet diskursida individualizm, o'zini ifoda etish va psixologik holatlarni ochiq muhokama qilish tendensiyasi kuchli bo'lsa, o'zbek internet muhitida ko'proq ijtimoiy moslashuv, kollektivlik va hazil-mutoyiba orqali ifodalash kuzatiladi (Jalilov, 2023). Masalan, ingliz tilidagi *main character energy* tushunchasi individual markaziylikni ifodalasa, o'zbek tilida unga mos ravishda kinoyaviy yoki hazil ohangidagi ifodalar qo'llanilishi mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek internet leksikasida shakllanayotgan neologizmlar zamonaviy til taraqqiyotining muhim va ajralmas qismi ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 2024-2026-yillar oralig'ida yuzaga kelgan yangi leksik birliklar asosan raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va global kommunikatsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liq holda shakllanmoqda. Bu esa internet diskursini til yangilanishining asosiy manbalaridan biriga aylantirmoqda.

Qiyosiy tahlil natijasida ingliz va o'zbek tillaridagi neologizmlarning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Ingliz tilida neologizmlar ko'proq global tendensiyalarni ifodalovchi, qisqa va ekspressiv shaklda yuzaga kelsa, o'zbek internet leksikasida ular ko'pincha o'zlashma yoki gibrid shaklda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yaratilgan yangi birliklar ham mavjud bo'lib, ular milliy lingvomadaniy xususiyatlarni aks ettiradi. Tadqiqot davomida

neologizmlarning lingvomadaniy mohiyati ham ochib berildi. Ular nafaqat yangi tushunchalarni ifodalash vositasi, balki jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlar, mentalitet va kommunikativ strategiyalarning ifodasi sifatida ham xizmat qiladi. Ayniqsa, ingliz internet diskursida individualizm va o'zini ifoda qilish tendensiyasi ustun bo'lsa, o'zbek muhitida jamoaviylik, kinoya va ijtimoiy baholash elementlari kuchliroq namoyon bo'lishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek internet diskursi ikki yo'nalishda rivojlanmoqda: bir tomondan global ingliz tilining ta'siri ostida gibrid neologizmlar kengayib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan milliy til resurslari asosida yangi birliklar yaratish jarayoni ham davom etmoqda. Bu holat tilning moslashuvchanligi va barqarorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Internet neologizmlarini lingvomadaniy nuqtai nazardan o'rganish zamonaviy tilshunoslik uchun muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib, u til va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi. Kelgusidagi tadqiqotlarda neologizmlarning normativlashuvi, ularning lug'atlarga kiritilishi hamda yoshlar nutqidagi o'rni kabi masalalarni yanada kengroq o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek internet leksikasida qo'llanilayotgan neologizmlar tilning dinamik rivojlanishining muhim ko'rsatkichi ekanligini tasdiqlaydi. Internet muhiti va raqamli kommunikatsiya jarayonlari yangi leksik birliklarning shakllanishi uchun qulay sharoit yaratib, ularning tezkor

tarqalishi va faol qo'llanilishini ta'minlamoqda. Ayniqsa, ingliz tili global kommunikatsiya vositasi sifatida neologizmlar manbai bo'lib xizmat qilayotgani va o'zbek tiliga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, neologizmlar nafaqat yangi tushunchalarni ifodalash vositasi, balki muayyan lingvomadaniy axborotni tashuvchi birlik sifatida ham namoyon bo'ladi. Ular orqali jamiyatning ijtimoiy-madaniy qadriyatlari, kommunikativ ehtiyojlari hamda zamonaviy hayot tarzi aks etadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi internet neologizmlari o'rtasida o'zaro ta'sir, ayniqsa, kalkalash, transliteratsiya va semantik moslashuv kabi jarayonlar orqali namoyon bo'lishi kuzatildi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek internet leksikasida neologizmlar ko'pincha ingliz tilidan o'zlashma shaklida kirib kelmoqda, biroq ular milliy tilning fonetik, morfologik va semantik me'yorlariga moslashgan holda yangi lingvomadaniy mazmun kasb etmoqda. Bu esa tilning ichki imkoniyatlari va moslashuvchanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, internet leksikasidagi neologizmlar til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yaqqol aks ettiradi hamda globallashuv sharoitida milliy tilning rivojlanish yo'nalishlarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari lingvokulturologiya, sotsiolingvistika va zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

References:

1. Bauman, Z. (2000). *Liquid modernity*. Cambridge, UK: Polity Press.
2. Crystal, D. (2003). *The Cambridge encyclopedia of the English language (2nd ed.)*. Cambridge, UK: Cambridge University Press.
3. Görlach, M. (2003). *English words abroad*. Amsterdam, Netherlands: John Benjamins Publishing Company.

4. Jalilov, B. H. (2023). Ingliz internet leksikonida paydo bo'lgan neologizmlarning lisoniy tahlili. *Scientific Reports of Bukhara State University*, (111), 33–37.
5. Jalilov, B. H. (2024). Neologisms in social media: Language evolution in the digital sphere. *Innovative Pathways to Proficiency: Exploring Methodologies in Teaching*.